



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 3 (5)  
2026**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**Farg‘ona davlat universiteti uchun  
MAXSUS SON**

**3**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2026**

**MUNDARIJA**

<b>Abduvoxidov A.A.</b> Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
<b>Olimova N.X.</b> Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
<b>Эргашев А.Х.</b> Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
<b>Yulchiyev A.O.</b> Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
<b>Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A.</b> Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
<b>Karimov Sh.X.</b> Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
<b>O‘rinboyev D.B.</b> Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
<b>Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R.</b> Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
<b>Israilova M.V.</b> Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
<b>Turg‘unov M.M.</b> Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
<b>Raximova K.N.</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
<b>Mannopova M.S.</b> Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
<b>Nematova Sh.E.</b> Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
<b>Rasulov U.A.</b> Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
<b>Raximov D.Sh.</b> Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
<b>Teshabayeva O.N.</b> Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
<b>Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K.</b> O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
<b>Jaksimova Z.R.</b> Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
<b>Yunusov A.R.</b> "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
<b>Юнусов Ш.</b> Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
<b>Xalmatjanova G.D.</b> Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
<b>Xomidov Q.Q.</b> O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
<b>Jo‘rayev H.Q.</b> Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari .....	114
<b>Xakimov D.R.</b> Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
<b>To‘xtasinova D.</b> Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
<b>Xolmatov B.A.</b> Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
<b>Jumakulov Z.I., Baxromov B.</b> O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
<b>To‘ychiyeva B.V.</b> Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
<b>Abdisamatov Sh.A.</b> Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
<b>Asraqulov A.S.</b> Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
<b>Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda</b> Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
<b>Muxtorov A.A., Mirzayev A.T.</b> Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
<b>Usibjonova G.U., Mannopova M.S.</b> Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

<b>Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N.</b> O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	<b>166</b>
<b>Ximmatova G.K., To‘xtasinova D.</b> Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	<b>170</b>
<b>Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T.</b> Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	<b>174</b>
<b>Xasanova R., Teshabayeva O.N.</b> Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	<b>180</b>
<b>Zufarova G.A.</b> Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	<b>184</b>
<b>Ergashev J.S.</b> "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish .....	<b>187</b>
<b>O‘rinov A.A.</b> Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	<b>192</b>
<b>Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A.</b> Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	<b>197</b>
<b>Саиджоновна З.Б.</b> Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	<b>201</b>
<b>Qodirov Z.E.</b> Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	<b>205</b>
<b>Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A.</b> Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	<b>210</b>
<b>Хайдаров Х.</b> Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	<b>214</b>
<b>Махамადийев М.М.</b> Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	<b>217</b>
<b>Madaminov G‘.M.</b> Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	<b>222</b>
<b>Nazirboyev D.D.</b> Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	<b>227</b>
<b>Хасанова С.И.</b> Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	<b>232</b>
<b>Teshaboyev B.A.</b> Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	<b>237</b>
<b>Mustafoyeva Z.A.</b> Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	<b>242</b>
<b>Xolmirzayev U.A., Muradova N.R.</b> Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	<b>245</b>
<b>Sadullayev R.P.</b> Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	<b>249</b>
<b>Мурадов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н.</b> Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	<b>258</b>
<b>Tursunov O.B.</b> Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash.....	<b>269</b>
<b>Sayitbayev Sh.D.</b> Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘shish.....	<b>274</b>
<b>Ibodulloyeva Z.S.</b> Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	<b>278</b>
<b>Salimova Z.S.</b> Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	<b>282</b>
<b>G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K.</b> Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	<b>286</b>
<b>Абдуллоев А.Ж.</b> Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	<b>289</b>
<b>Rahimova M.I.</b> O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	<b>294</b>
<b>Rahmatullayeva D.O.</b> Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	<b>299</b>
<b>Valikulov Sh.Z.</b> “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	<b>305</b>
<b>Турабекова Г.И.</b> Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	<b>312</b>
<b>Tajiboyev S.O.</b> Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	<b>316</b>
<b>Madaminov A.M.</b> Sanoat korxonalari faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	<b>319</b>

**XALQARO HAMKORLIKNING EKSPORT-IMPORT OQIMLARINI TARTIBGA SOLISHDAGI ROLI**

**РОЛЬ МЕЖДУНАРОДНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В РЕГУЛИРОВАНИИ ЭКСПОРТНО-ИМПОРТНЫХ ПОТОКОВ**

**THE ROLE OF THE ROLE OF INTERNATIONAL COOPERATION IN REGULATING EXPORT-IMPORT FLOWS**

**To‘xtasinova Dildora** dotsent (PhD), FarDU

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada xalqaro hamkorlikning eksport–import oqimlarini tartibga solishdagi o‘rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Jahon iqtisodiyoti sharoitida savdo munosabatlarini muvofiqlashtirish, tashqi iqtisodiy siyosatni takomillashtirish hamda milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda xalqaro institutlar va ikki tomonlama kelishuvlarning ta’siri yoritib berilgan

**Kalit so‘zlar:** Xalqaro bojxona hamkorligi, Jahon Savdo Tashkiloti, import, eksport, bojxona, funksiya, logistika

В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются роль и значение международного сотрудничества в регулировании экспортно-импортных потоков. Освещается влияние международных институтов и двусторонних соглашений на координацию торговых отношений в условиях мировой экономики, совершенствование внешнеэкономической политики, а также повышение конкурентоспособности национальной экономики.

**Ключевые слова:** Международное таможенное сотрудничество, Всемирная торговая организация, импорт, экспорт, таможня, функция, логистика

This article provides a scientific and theoretical analysis of the role and importance of international cooperation in regulating export–import flows. It highlights the impact of international institutions and bilateral agreements on coordinating trade relations in the global economy, improving foreign economic policy, and enhancing the competitiveness of the national economy.

**Keywords:** International customs cooperation, World Trade Organization, import, export, customs, function, logistics

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining kuchayib borishi mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning yanada kengayishiga olib kelmoqda. Xususan, xalqaro savdo munosabatlari davlatlar iqtisodiy taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Eksport va import operatsiyalari orqali mamlakatlar o‘zaro tovar va xizmatlar almashinuvini amalga oshiradi, bu esa milliy iqtisodiyotning rivojlanishi, ishlab chiqarish samaradorligining oshishi hamda yangi bozorlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Hozirgi kunda eksport–import oqimlarini samarali tartibga solishda xalqaro hamkorlik muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirish, tashqi savdo siyosatidagi to‘siqlarni kamaytirish va savdo jarayonlarini tartibga solishda xalqaro tashkilotlar, mintaqaviy iqtisodiy birlashmalar hamda ikki tomonlama va ko‘p tomonlama kelishuvlar muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, zamonaviy sharoitda jahon bozorida raqobatning kuchayishi, global ta’minot zanjirlarining shakllanishi va iqtisodiy integratsiya jarayonlarining rivojlanishi eksport–import munosabatlarini yanada samarali boshqarishni talab etmoqda. Shu jihatdan xalqaro hamkorlik mexanizmlaridan samarali foydalanish tashqi savdo

oqimlarini tartibga solish, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish va barqaror iqtisodiy o‘rinishni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tobora chuqurlashib bormoqda. Bu jarayonda milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, xalqaro institutlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va ikki tomonlama iqtisodiy kelishuvlarni kengaytirish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xalqaro iqtisodiy institutlar jahon savdosi va investitsiya jarayonlarini tartibga solishda muhim o‘rin tutadi. Jumladan, xalqaro moliyaviy tashkilotlar, iqtisodiy hamkorlik institutlari hamda mintaqaviy tashkilotlar mamlakatlarning iqtisodiy islohotlarini qo‘llab-quvvatlaydi, investitsiya muhitini yaxshilashga ko‘maklashadi va tashqi savdo munosabatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu institutlar orqali davlatlar iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion tajribalarni joriy etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda xalqaro institutlar va ikki tomonlama kelishuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Global iqtisodiy integratsiya sharoitida mamlakatlar o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishda xalqaro tashkilotlar hamda davlatlararo shartnomalar muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Xalqaro institutlar jahon iqtisodiyotida barqarorlikni ta’minlash, savdo munosabatlarini tartibga solish va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ikki tomonlama iqtisodiy kelishuvlar mamlakatlar o‘rtasida savdo to‘siqlarini kamaytirish, investitsiyalarni jalb etish va texnologiya almashinuvini rag‘batlantirishda muhim omil hisoblanadi. Bunday kelishuvlar orqali eksport-import operatsiyalari tartibga solinadi, tovar va xizmatlar harakati erkinlashtiriladi hamda tadbirkorlik faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Natijada milliy ishlab chiqaruvchilar tashqi bozorlarda faol ishtirok etish imkoniga ega bo‘ladi.

Bugungi kunimizda xalqaro savdo global iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylangan. Eksport va import vositalari orqali ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar bir davlatdan boshqasiga o‘tadi va shu bilan milliy iqtisodiyotlar o‘sadi, ish o‘rinlari yaratiladi hamda bozorlar yanada kengayadi. Ammo bu jarayon samarali bo‘lishi bojxona tizimi va xalqaro bojxona hamkorligiga bevosita bog‘liq. Jahon bozorida bojxona hamkorliging bir nechta funksiyalari mavjud:

- bojxona jarayonlarini soddalashtirish,
- tartibga solish
- xavfsizlikni ta’minlash orqali eksport va import oqimlarini samarali boshqarish.

Shu munosabat bilan, bojxona hamkorligi global savdo jarayonlarini qo‘llab-quvvatlovchi asosiy mexanizm hisoblanadi.

Eksport va import davlatlar iqtisodiyotining hayoti bo‘lib, ular orqali tovarlar o‘zaro almashiladi. Bu jarayonni tartibga soluvchi asosiy vositalardan biri bojxona tizimidir. Bojxona orqali harakatlanayotgan tovarlarni qay darajada samarali tartibga solish, to‘g‘ri rasmiylashtirish va shaffof tartiblarni ta’minlash mamlakatlar orasidagi savdoning barqarorligini kafolatlaydi. Shuni yodda tutish kerakki, bojxona xizmatlari tashqi iqtisodiy faoliyatni yo‘lga qo‘yishda muhim rol o‘ynaydi — ular import va eksport jarayonlarini soddalashtirish, tartibga solish, shuningdek biznes uchun qulay sharoit yaratish orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlaydi. Bu haqda Shoira Ismatullayeva o‘z maqolasida bojxona xizmatlarining iqtisodiy ahamiyati to‘g‘risida batafsil ma’lumot beradi va rasmiylashtirish samaradorligi hamda raqamli yechimlarni joriy etishning zarurligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, bojxona xizmatlari orqali eksport-import protsessini soddalashtirish milliy tadbirkorlar uchun raqamli deklaratsiya, shaffoflikni oshirish va risklarni boshqarish imkonini beradi, bu esa ichki ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. [1] Eksport va import orqali bozorlar kengayadi, tovarlar tez yetkaziladi va ishlab chiqaruvchilar global bozor bilan integratsiyalanadi. Bojxona tizimining samarali ishlashi esa shu jarayonni bosqichma-bosqich qo‘llab-quvvatlaydi

O‘zbekiston bugungi kunda transport yo‘laklari bo‘yicha eksport-import va tranzit aloqalarini takomillashtirmoqda. Transport va logistika soddalashtirilishi orqali bojxona jarayonlari ham tezlashmoqda, bu esa xalqaro savdoni rivojlantirishga xizmat qiladi. [2] Bundan tashqari O‘zbekiston

bojxona organlari AI va raqamli tizimlarni joriy etib, bojxona kuzatuvini takomillashtirish bo‘yicha yangicha mexanizmlarni joriy qilmoqda. Bunda sun’iy intellekt orqali risklarni aniqlash va nazoratni kuchaytirish eksport-import jarayonlarida tezkorlik va shaffoflikni oshiradi. [3]

**1-jadval**

**O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi tahlili**

<b>Ko‘rsatkich</b>	<b>2023 (mln \$)</b>	<b>2024 (mln \$)</b>	<b>O‘zgarish</b>
Tashqi savdo aylanmasi (FTT)	62 567.4	65 934.0	<b>+5.4%</b>
Eksport	24 426.2	26 948.2	<b>+10.3%</b>
Import	38 141.2	38 985.8	<b>+2.2%</b>

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasi 2024 yilda 65,9 mlrd AQSH dollariga yetdi va 2023 yilga nisbatan 5,4 foizga o‘ydi. Ayniqsa eksport hajmining 10,3 foizga oshgani ijobiy tendensiya sifatida baholanadi. Bu holat xalqaro hamkorlik doirasida amalga oshirilayotgan savdo kelishuvlari, mintaqaviy integratsiya jarayonlari hamda tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarining kengayishi bilan izohlanadi.

Jahon Savdo Tashkiloti (JST) Trade Facilitation Agreement – Savdoni soddalashtirish bitimi global savdoni tartibga solish va bojxona jarayonlarini yengillashtirishga yo‘naltirilgan asosiy xalqaro hujjatlardan biridir. Bu bitim bojxona rasmiylashtiruvini, ma’lumot almashish, shuningdek tovarlarni chegara orqali tez, xavfsiz va samarali o‘tkazish bo‘yicha qoidalarni belgilaydi. Bitim to‘la ijrosi xalqaro savdo xarajatlarini taxminan 14.3% ga kamaytirishi va global savdoning yillik o‘shirishini taxminan 1 trillion dollar ga oshirishi mumkinligi JST tomonidan ta’kidlangan. [4] Bu shuni anglatadiki, davlatlar bojxona jarayonlarini soddalashtirgan sari eksport va import oqimlari osonlashadi, bu esa milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi va investorlar uchun qulay sharoit yaratadi.

Shuningdek, JST va Jahon bojxona tashkiloti (WCO) hamkorligi bojxona bo‘yicha texnik yordam, ma’lumot almashinuvi va bozor kirish sharoitlarini yaxshilash ustida olib boriladi. Bu hamkorlik bojxona qiymati, tovar tasnifi va kelib chiqish qoidalari bo‘yicha bir xil me‘yorlarni tatbiq etishda muhim rol o‘ynaydi. 2025-yilda JST va WCO o‘rtasida imzolangan yangi hamkorlik memorandumini bo‘yicha bojxona masalalaridagi hamkorlik yanada chuqurlashtiriladi va bojxona qarorlariga ko‘proq texnik ekspertiza va xavfsizlik integratsiyasi kiritiladi. Bu esa eksport-import jarayonlarining tartibga solinishini osonlashtiradi hamda xavfsizligini oshiradi. [5]

O‘zbekiston amaliyotida bojxona tizimi nafaqat milliy huquqiy bazani takomillashtirmoqda, balki xalqaro talablarni ham joriy etmoqda. JST(Jahon Savdo Tashkiloti)ga a‘zo bo‘lish jarayonida O‘zbekiston bojxona bojlari va tartib-qatnashuvlarini JST me‘yorlariga moslashtirish bo‘yicha qat’iy chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Misol uchun, 2024–2025 yillarda bojxona bojlarini GATT 1994 talablariga moslashtirish bo‘yicha qarorlar qabul qilindi. Bu eksport va import xarajatlarini kamaytirishga va savdoni soddalashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, O‘zbekiston eksport-import va tranzit aloqalari 9 ta xalqaro transport yo‘lagi orqali amalga oshirilmoqda, bu bojxona soddalashtirilgan tartiblar orqali savdo oqimlarini kengaytiradi. Transport va logistika hamkorligini kengaytirish eksport-import oqimlarini yanada samarali qiladi. [6]

Xalqaro bojxona hamkorligining eksport va importga bevosita ta’siri quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshadi:

-Ma’lumot almashish va AQSh misoli:

Zamonaviy bojxona tizimlari ma’lumot almashinuvi orqali tovarlar haqida tezkor axborot oladi va risklarni aniqlaydi. Bu jarayon chegara rasmiylashtiruvini vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi va eksport-import oqimlarini mustahkamlaydi. Tizimlar o‘rtasida avtomatik axborot almashish bojxona organlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi. [7]

- Mutual Recognition Agreements (MRA) – O‘zaro tan olish bitimlari:

Bunday bitimlar bojxona tekshiruvlari hamda hujjatlar tan olinishi orqali eksport va import jarayonlarini soddalashtiradi. Masalan, tovar tasniflash va qadriyat bahosi bo‘yicha bir mamlakatda

olingan sertifikatlar boshqa davlat bojxonalari tomonidan tan olinadi. Bu eksport-import jarayonlarini sezilarli tezlashtiradi va tranzit xarajatlarini kamaytiradi. [8]

- Risklarni boshqarish va noqonuniy savdoni oldini olish:

Xalqaro bojxona hamkorligi kontrabanda, firibgarlik, noqonuniy tovarlar oqimini aniqlash va oldini olishda ham yordam beradi. Ma'lumotlarni birgalikda tahlil qilish avtomatlashtirilgan risk tizimlarini yaratadi va bojxona resurslarini samarali joylashtiradi.

- Zamonaviy texnologiyalar va Smart Bojxona:

Bojxona hamkorligi raqamli texnologiyalar orqali ham kuchaymoqda. Smart bojxona konsepsiyasi bojxona jarayonlarini avtomatlashtirish, IoT, blokcheyn va sun'iy intellekt kabi texnologiyalarni joriy etishni o'z ichiga oladi. Bu esa eksport-import jarayonlaridagi kechikishlarni bartaraf etadi, xavfsizlikni oshiradi va bojxona ma'lumotlarining shaffofligini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Xalqaro bojxona hamkorligi har bir davlat uchun ko'plab imkoniyatlar yaratadi. Chunonchi, ular uchun barqaror boj to'lovlari davlatlarda tadbirkorlarni ma'lum ma'noda yuqori riskdan himoya qiladi va ularda tadbirkorlik qobiliyatini va aniq prognozlash va yuqori foydaga erishish imkonini beradi. Shuningdek davlatlar orasida eksport va import hajmini barqarorlashtiradi va iqtisodiy-ijtimoiy o'sishni yuqori sur'atlarda amalga oshiradi. Tovar aylanmasi va valyuta muammolari hal bo'lishida yetakchi mavqeni egallaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. zamtadqiqot.uz
2. <https://kun.uz/news/2022/11/08/ozbekiston-eksport-import-va-tranzit-aloqalari-9-ta-xalqaro-transport-yolagi-boylab-amalga-oshirilmoqda>
3. <https://qalampir.uz/en/news/uzbekistonda-bozhkhona-kuzatuvida-sun-iy-intellektdan-foydalaniladi-114989>
4. [https://www.wto.org/english/tratop\\_e/tradfa\\_e/tradfa\\_e.htm](https://www.wto.org/english/tratop_e/tradfa_e/tradfa_e.htm)
5. [https://www.wto.org/english/tratop\\_e/tradfa\\_e/tradfa\\_e.htm](https://www.wto.org/english/tratop_e/tradfa_e/tradfa_e.htm)
6. <https://uz24.uz/uz/articles/jst-6-5>
7. <https://factlineup.com/international-customs-cooperation>
8. <https://factlineup.com/international-customs-cooperation>